



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**KONNOTATSIYA VA KONNOTATIV BIRLIKLARNING
O‘RGANILGANLIK DARAJASI HAMDA TURLARI
THE DEGREE OF STUDY AND CLASSIFICATION OF
CONNOTATION AND CONNOTATIVE UNITS**

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/XBGQ8899

Xolmamatova Sarvinozxon Abduvali qizi

Farg‘ona davlat universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

[*Azimjonovazamatjon440@gmail.com*](mailto:Azimjonovazamatjon440@gmail.com)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada konnotatsiya tushunchasi va uning tilshunoslikdagi o‘rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. So‘zning lug‘aviy (denotativ) ma‘nosi bilan bir qatorda, unga qo‘shiladigan qo‘shimcha ma‘nolar — konnotativ qatlamlar hissiy, baholovchi, stilistik, ramziy va madaniy qirralarda o‘rganilgan. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilingan, o‘zbek adabiyotidan badiiy misollar orqali konnotatsiyaning turli ko‘rinishlari yoritilgan. Natijada, konnotatsiya so‘zning semantik imkoniyatlarini kengaytirib, til va madaniyatning o‘zaro aloqasini ochib beruvchi muhim lingvistik hodisa ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, konnotativ birlik va konnotatsiya o‘rtasidagi uzviylik hamda farqli jihatlar yoritilib konnotativ birliklarning evolyutsion rivojlanishi, turlari misollardan foydalanilgan holda ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *konnotatsiya, denotatsiya, emotsional konnotatsiya, ekspressiv konnotatsiya, stilistik konnotatsiya, ramziy konnotatsiya, madaniy konnotatsiya, lingvopoetika.*

Annotation. *This article analyzes the concept of connotation and its role in linguistics from both theoretical and practical perspectives. Alongside the lexical (denotative) meaning of a word, the additional layers of meaning — connotative aspects such as emotional, evaluative, stylistic, symbolic, and cultural dimensions — are examined. The study provides a comparative analysis of the views of local and foreign scholars and illustrates various manifestations of connotation through literary examples from Uzbek literature. As a result, it is scientifically substantiated that connotation expands the semantic potential of words and serves as an important linguistic phenomenon revealing the interrelation between language and culture. In addition, the interconnection and distinctions between connotative units and connotation are discussed, and the evolutionary development and types of connotative units are demonstrated with relevant examples.*

Keywords: *connotation, denotation, emotional connotation, expressive connotation, stylistic connotation, symbolic connotation, cultural connotation, linguopoetics.*



So‘z ma‘nosi lingvistik tadqiqotlarning eng muhim markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. So‘zning lug‘aviy ma‘nosidan tashqari, unga qo‘shiladigan qo‘shimcha ma‘nolar — konnotatsiyalar nutqiy qo‘llanishni boyitib, matnga qo‘shimcha ekspressivlik, emotsionallik va stilistik bo‘yoq beradi. XX asr tilshunosligida R.Jakobson, V.Gak, S.Apresyan kabi olimlar konnotatsiya nazariyasiga asos solganlar. Ularning qarashlari konnotatsiyani so‘zning semantik qatlami sifatida ko‘rishga imkon yaratgan. O‘zbek tilshunosligida ham Sh.Rahmatullayev, A.Madvaliyev, S.Otamirzayeva, N.Mahmudov kabi olimlar konnotatsion ma‘noni tahlil qilib, badiiy nutqdagi o‘rnini ochib berganlar.

Maqola tahlilida quyidagi metodlardan foydalanildi: Tarixiy-deskriptiv metod – konnotatsiya terminining kelib chiqishi va evolyutsiyasi manbalarga tayangan holda yoritildi; Qiyosiy-semantik metod – turli olimlarning (Jakobson, Gak, Apresyan, Suntsova va boshqalar) ta‘riflari solishtirildi; Lingvopoetik tahlil – Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov kabi adiblar asarlaridan olingan misollar asosida konnotativ birliklar sharhlanib, ularning badiiy-estetik vazifasi ko‘rsatildi; Madaniy-lingvistik yondashuv – konnotatsiyaning milliy qadriyatlar, urf-odatlar bilan bog‘liq qatlamlari aniqlab berilgan. R.Jakobson konnotatsiyani so‘zning asosiy ma‘nosidan tashqaridagi semantik qatlam sifatida izohlagan bo‘lsa, V.Gak uni nutqiy jarayonda yuzaga keladigan baholovchi va hissiy qo‘shimcha ma‘no sifatida talqin etadi. S.I. Apresyan konnotatsiyani hissiy, ekspressiv, stilistik, ramziy va madaniy turlarga ajratib, nazariy asos yaratgan. M.V. Suntsova esa Apresyan nazariyasini amaliy jihatdan boyitib, rus tilidagi konnotatsiya turlarini matn asosida tadqiq qilgan. O‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, A.Madvaliyev, S.Otamirzayeva, N.Mahmudov kabi olimlar konnotatsiyaning badiiy nutqdagi lingvopoetik qirralarini chuqur tahlil qilganlar. Bu manbalar konnotatsiyaning tilshunoslikda turli qirralarini ochib beradi. Yillar davomida so‘zning ma‘nosini o‘rganish lingvistikada chuqur tahlil etilishi kerak bo‘lgan markaziy masalalardan biri sifatida ko‘rilmog‘da. So‘zning lug‘aviy (denotativ) ma‘nosi bilan bir qatorda, unga qo‘shiladigan qo‘shimcha ma‘nolar — konnotatsiyalar ham katta ilmiy qiziqish uyg‘otgan va uni turli tomondan o‘rganilishi kerak bo‘lgan mavzulardan biridir. Konnotatsiya so‘zning hissiy, ekspressiv va stilistik qirralarini namoyon etib, nutqiy qo‘llanishni boyitadi.

R.Jakobson konnotatsiyani “so‘zning asosiy ma‘nosidan tashqaridagi qo‘shimcha semantik qatlam” sifatida talqin qiladi. U bu fikrini “Linguistics and Poetics” asarida bayon etgan [Jakobson,1960:352]. Bizningcha, bu ta‘rif konnotatsiyaning tilshunoslikdagi ahamiyatini aniq aks ettiradi, chunki u so‘zning semantik qatlamlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. V.Gak konnotatsiyani “nutqiy jarayonda yuzaga keladigan baholovchi va hissiy ma‘no qo‘shimchasi” deb ta‘riflaydi [Gak,1986:132]. U bu fikrini “Pragmatics and Semantics” asarida bayon etgan. Bu ta‘rif konnotatsiyaning nutqiy jarayondagi rolini yoritadi, chunki u so‘zning kontekstga qarab qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi. Shuningdek unga boshqa ta‘riflar ham beriladi. Jumladan,



Konnotatsiya (lot. Connotation – “qo‘shimcha ma’no”) — so‘zning lug‘aviy ma’nosiga qo‘shilib keladigan hissiy, baholovchi yoki stilistik bo‘yoqlardir [Vinogradov, 1977:42]. Denotativ ma’no narsa-hodisaning bevosita belgisini ifodalasa, konnotativ qatlam uning subyektiv va madaniy qiymatini ochib beradi [Crystal, 2008:67]. Konnotatsiya terminining yuzaga kelishi bo‘yicha turli olimlar turlicha qarashlarni bildiradi. Jumladan, L.B. Kropotova konnotatsiya so‘zi taxminan 1200-yilda paydo bo‘lganligini ta’kidlab, bu terminning lotincha “connotatre” so‘zidan olinganligini va “birgalikda”, “bilmoq” ma’nolarini ifodalashini hamda sxolastik mantiqdan kelib chiqqan so‘zlarning ma’nosi haqidagi falsafiy va teologik munozaralardan foydalanilganligini aytib o‘tgan [Kropotova, 2010:38]. Boshqa tilchilar guruhi esa “Konnotatsiya” so‘zining kelib chiqishini XVI asrga to‘g‘ri kelishini aytadilar. Xususan konnotatsiya so‘zining ta’rifi keltrilgan ingliz etimologik lug‘atida bu termin 1530-yillarda “Konnotatsiya” qo‘shimcha ma’no bildiruvchi so‘z sifatida qo‘llanila boshlandi. Bu so‘zning kelib chiqishi o‘rta lotincha “com” (birgalikda)+ notare”(belgilash) so‘zlaridan kelib chiqqanligini va bu atama mantiqiy termin sifatida “asosiy ma’noga qo‘shimcha belgi qo‘shish” ma’nosini bildirishi haqida yozilgan [Aspresyan, 1974:93]. Ammo bu terminning qo‘shimcha ma’no bildirish xususiyatini to‘laqonli ochib berish XIX asrda ingliz tilshunosi James Millga nasib etgan. James Mill o‘zining 1829-yilda chop etilgan Analysis of the Phenomena of the Human Mind asarida konnotatsiya va denotatsiya tushunchalarini “white horse” (oq ot) misolida tushuntirgan [Suntsova, 2021:12]. Misolda denotativ qatlam shunday: “horse” – otni, “white” – rangni bildiradi. Konnotativ qatlam esa so‘zga qo‘shimcha ma’no beradi; masalan, “white” so‘zi ramziy jihatdan poklik, soflik, go‘zallik, kuch-quvvat yoki jasorat ma’nolarini ifodalashi mumkin. Shu tariqa, Mill denotativ va konnotativ qatlamlarning alohida bo‘lishi, lekin bir-biriga bog‘liqligi orqali so‘zning ta’sirchanligini oshirishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilshunosligida ham konnotativ ma’no va uning badiiy nutqda qo‘llanishi haqida bir qator ilmiy ishlar yaratilgan. Sh.Rahmatullayev o‘zbek tilidagi so‘zlarning denotativ va konnotativ qatlamlarini alohida ko‘rib chiqadi. A.Madvaliyev o‘zbek leksikologiyasida baholovchi birliklarning semantik imkoniyatlarini chuqur tahlil qiladi. S.Otamirzayeva badiiy matnlarda konnotativ birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etadi. U.Tursunov o‘zbek tilining stilistik imkoniyatlarini ochib berishda konnotatsiyaning o‘rni haqida yozadi. N.Mahmudov konnotativ birliklarning nutqiy mahorat va ekspressivlikni ta’minlashini ta’kidlaydi. G‘.Abdurahmonov esa umumiy tilshunoslik masalalarida konnotatsiyani so‘z ma’nosining qo‘shimcha qatlami sifatida ko‘rsatadi. S.I. Apresyan – u konnotatsiyani lingvistik qatlam bo‘yicha tahlil qilgan va hissiy, baholovchi, stilistik, ramziy va madaniy turlarni ajratgan. U asosiy nazariy asoslarni yaratgan va so‘zning konnotativ qatlamini strukturaviy jihatdan ko‘rsatgan. M.V. Suntsova – rus tilidagi konnotatsiyani amaliy jihatdan tahlil qilib, Apresyan nazariyasini qo‘llagan, turli turlarini real matn misollarida ko‘rsatgan. S.I. Apresyaning nazariyasiga ko‘ra konnotatsiyaning guruhlanishi:



1. Emotsional (hissiy) konnotatsiya – his-tuyg‘uni ifodalaydi.
2. Ekspressiv (baholovchi) konnotatsiya – obrazlilik va ta’sirchanlik yaratadi.
3. Stilistik konnotatsiya – kitobiy, og‘zaki yoki rasmiy qatlamni belgilaydi.
4. Ramziy (symvolic) konnotatsiya – ramziylikni ifodalaydi.
5. Madaniy konnotatsiya – xalqning urf-odati va tarixiy tajribasini ifodalaydi.

Ularni hozir har bir turini ko‘rib, izohlab misollar yordamida tahlilga tortib ko‘ramiz.

Hissiy (emotsional) konnotatsiya so‘z yoki ibora tinglovchi yoki o‘quvchida ma’lum bir his-tuyg‘u uyg‘otadi; masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida “tog‘lar qopqoniga o‘xshash qorong‘ulik” ifodasi qorong‘ilik bilan qo‘rquv va xavotir hissini uyg‘otadi. [Qodiriy, 1948:124]. Baholovchi (evaluative) konnotatsiya esa so‘zga ijobiy yoki salbiy baho beradi; Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida “mardlik” qahramonning ijobiy xususiyatini, “hiyla” esa salbiy bahoni bildiradi [Cho‘lpon, 1935:112].

Stilistik konnotatsiya so‘zning badiiy yoki rasmiy kontekstga mos keladigan uslub orqali ma’nosini boyitadi; masalan, Hamid Olimjon she’riyati: “gul” so‘zi badiiy uslubda go‘zallik va muloyimlik ramzi sifatida ishlatiladi [H.Olimjon,1957:213]. Ramziy (symvolic) konnotatsiya so‘z madaniy yoki tarixiy ramz sifatida qo‘shimcha qatlam oladi; Erkin Vohidov she’riyatida “oq qush” ramzi erkinlik va poklikni ifodalaydi [E.Vohidov,1979:86]. Madaniy (cultural) konnotatsiya so‘zning madaniyatga bog‘liq holda o‘ziga xos ma’no qatlamini olishini bildiradi; Abdulla Qahhorning “Oltin devor” asarida “samoviy yulduz” faqat astronomik jismlarni emas, balki o‘zbek xalqining qadriyatlari va orzularini ifodalaydi [A.Qahhor, 1965:11]. Shu tarzda, konnotatsiya turlari so‘zning lingvistik va madaniy qatlamlarini birgalikda o‘rganish imkonini beradi va o‘zbek adabiyotida keng qo‘llanilgan. Tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikda konnotatsiya va u bilan bir vaqtda tadqiq etiluvchi konnotativ birlik tushunchalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqliklar hamda ularning o‘ziga xos o‘xshashliklari, farqli jihatlari muhim ahamiyatga ega. Quyida bu farqli jihatlari keltirib o‘tilgan.

Konnotatsiya — bu so‘z yoki ifodaning lug‘aviy (denotativ) ma’nosidan tashqari, unga bog‘langan emotsional, baholoviy va madaniy ma’nolar qatlamidir. U so‘zga qo‘shimcha ma’no va hissiyot beradi, xalqning madaniy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va ijtimoiy munosabatlari aks etadi [Ibrohimov, 2012:7]. Tadqiqotchi bu bilan konnotatsiya qo‘shimcha ma’no ekanligini, denotativ ma’noga misoli bir libos ekanligini ta’kidlaydi. Masalan, “uy” so‘zini tahlil qilib o‘tsak. Bu so‘z denotativ ma’noda yashash joyini bildirsa, uning konnotatsiyasi mehr-muhabbat, xavfsizlik va osoyishtalik tushunchalari bilan bog‘lanadi. Chunki o‘zbek xalqida oila diydor ko‘rishadigan maskan aynan “uy” leksemasi bilan ifoda etiladi. Konnotativ birlik esa lug‘aviy ma’nodan tashqari konnotativ (emotsional, baholoviy, madaniy) ma’nolarni o‘zida mujassam etgan til birligi hisoblanadi. Bu so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lishi mumkin [Qodirov, 2015:19]. Ikkinchi tadqiqotchimiz fikrlariga tayanadigan bo‘lsak, konnotativ birliklar o‘z nomi bilan alohida bir birlik ya’ni shakl demakdir. Yanada sodda qilib tushuntirilsa, “ona”



so‘zining denotativ ma’nosi biologik jihatidan ayol jinsiga mansub, tug‘ish xususiyatiga ega inson. Konnotatsiyasi – mehr, g‘amxo‘rlik, himoya ma’nolari. Shakl jihati uning konnotativ birligidir. Shunday qilib, konnotatsiya — bu ma’no qatlamidir, konnotativ birlik esa bu qatlamni o‘zida ifodalovchi til elementi sifatida qaraladi. Yana bir olimimizning fikrlariga yuzlanadigan bo‘lsak u har ikki terminning o‘xshash tomonlari har ikkalasida ham lug‘aviy ma’nodan tashqari qo‘shimcha, baholoviy va madaniy ma’no yukini o‘zida saqlashini va tilning boyligini oshirishga xizmat qilishda ekanligini aytib, farqi esa konnotatsiya abstrakt semantik tushuncha bo‘lib, konnotativ birlik esa tilshunoslikda aniq so‘z yoki ibora shaklida namoyon bo‘lishda ekanligini ko‘rsatadi [Karimov, 2020:45]. Konnotativ birliklarning paydo bo‘lishi haqida olimlarimiz turlicha fikrlarni keltirib o‘tishadi. Ulardan biz Yusupov fikrlariga tayanishni ma’qul ko‘rdik. Konnotativ birliklarning dastlabki paydo bo‘lishi bosqichini tilning ilk shakllanish davriga ya’ni folklor (xalq og‘zaki ijodi) orqali paydo bo‘lganligiga taqaydilar. Bu davrda xalqning tabiat, hayvonot, va ruhiy tushunchalarga bo‘lgan munosabati ifodalanuvchi iboralar keng tarqalganligini ko‘rsatib, mifologik elementlar ko‘p uchrashini dalil sifatida keltirib o‘tishgan. Masalan, bo‘ri kuch va jasorat ramzi sifatida, tulki ayyorlik va munofiqlik ma’nosi sifatida nafaqat o‘tgan davr folklor namunalarida, balki bugungi badiiy adabiyot namunalarida ham ko‘p uchrashi fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi. Konnotativ birliklar beshta bosqich asosida shakllanadi. Har qanday birlik shu bosqichdan o‘tmasdan turib konnotativ birlikka aylana olmaydi.

1. Denotativ ma’noning shakllanishi. Har qanday so‘zning boshlang‘ich, asosiy — denotativ (lug‘aviy) ma’nosi bo‘ladi. Bu ma’no asosan obyektiv, umumiy tushunchani bildiradi (masalan, “uy” — yashash joyi).

2. Emotsional va baholoviy ma’nolar hosil bo‘lishi. So‘zlar kundalik nutqda qo‘llanilganda, ular turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda qo‘shimcha hissiy, baholoviy ma’nolar oladi. Masalan, “uy” so‘zi xavfsizlik va mehrni anglatishi mumkin. Bu jarayon til foydalanuvchilarining his-tuyg‘ulari, qadriyatlar bilan bog‘liq.

3. Madaniy-kontekstual ma’nolarni qabul qilishi. So‘zga madaniyatga xos ma’no qatlamlari qo‘shiladi. Bu qatlamlar an’analar, urf-odatlar, tarixiy hodisalar asosida shakllanadi. Misol: “Navro‘z” so‘zi faqat bayram nomi emas, balki yangilanish, tabiat uyg‘onishi ramzi sifatida ham talqin qilinadi.

4. Konnotativ birlik sifatida tilga kirib borishi. Shunday qo‘shimcha ma’nolarga ega so‘z yoki birikma konnotativ birlikka aylanadi. Bu birlik tilda mustahkamlanib, o‘zining madaniy va emotsional funksiyasini bajaradi.

5. Barqaror konnotativ birlikka aylanishi. Konnotativ birlik matn va nutqda doimiy ishlatilib, til va madaniyat kodlariga kiradi. Bu bosqichda so‘z yoki ibora o‘zining asosiy va qo‘shimcha ma’nolari bilan til qatlami sifatida mustahkamlanadi. Biz keltrigan ushbu jarayon tilning rivojlanishi, jamiyatning madaniy o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq. Ba’zan konnotativ birliklar tarixiy jarayonlar yoki siyosiy ijtimoiy holatlar ta’sirida paydo bo‘ladi.



Konnotativ birliklarni tushunishni yanada osonlashtirish uchun uni shakl (lingvistik) shakl jihatidan bir nechta turga bo‘lib o‘rgangan ma‘qul. Masalan, ular ko‘pincha quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi: 1. So‘zlar (Leksemalar). Bir so‘zning o‘zida asosiy (denotativ) ma‘nodan tashqari konnotativ (qo‘shimcha, emotsional) ma‘no bo‘lishi mumkin. Misol: “Ona” — mehr-muhabbat ramzi, “Vatan” — sadoqat va faxr ramzi.

2. So‘z birikmalari (Frazeologik birliklar emas). Bir nechta so‘zdan tashkil topgan, lekin frazeologik qat‘iylikka ega bo‘lmagan, tarkibida konotativ ma‘no yashirin birliklar. Misol: “Erkinlik maydoni” — faqat joy emas, balki ijtimoiy tushuncha. “Qonun ustuvorligi” — adolat va barqarorlik ma‘nosini beradi.

3. Frazeologik birikmalar (Idiomalar). Qat‘iy, o‘zgarmas shaklda qo‘llaniladigan so‘z birikmalari bo‘lib, ko‘pincha asosiy ma‘nodan boshqa, konnotativ yoki metaforik ma‘no kasb etadi. Misol: “Olovni yoqish” — qarama-qarshilik boshlash. “To‘rt devor orasida qolish” — cheklanganlik.

4. Metaforalar va metonimiyalar. Til birliklari emas, balki til shakllari sifatida qaraladi, lekin ko‘pincha konotativ birlik sifatida ishlatiladi. Misol: “Qalbni eritish” — hissiy ta‘sir ko‘rsatish (metafora). “Keng ko‘lamdagi kuch” — davlat yoki tashkilot (metonimiya).

5. Sinonimlar orasidagi konnotativ farq. Bir ma‘noga ega bo‘lgan sinonim so‘zlardan biri boshqasiga nisbatan ko‘proq konnotativ (emotsional, baholoviy) ma‘no beradi. Misol: “Uy” va “Oila uyi” — ikkinchisi ko‘proq iliqlik, mehr-shafqat ramzi. O‘zbek tilshunosligida konnotativ birliklarni o‘rganish asoslari XX asr boshlarida shakllangan. Tilshunoslar frazeologizm va emotsional ma‘nolarni tahlil qilishga kirishgan. Bunday tilshunos olimlar sirasiga A.Qodirov, Sh.Xo‘jayev va M.Qodirovalarning ilmiy izlanishlarini misol qilib olishimiz mumkin. Klassik adabiyot tahlillari orqali, Navoiy, Bobur va boshqa yozuvchilarning asarlarida ushbu birliklarning ifodalanishiga e‘tibor qaratildi. Jumladan Navoiy va Bobur asarlaridagi konnotativ birliklar bir qator izlanuvchilar tomonidan tadqiq etiladi. Masalan, Q.Yo‘ldoshev, Sh.Xo‘jayev, M.Sobirovalarning ilmiy faoliyati shu yo‘nalishga qaratilgan. Davr o‘tishi bilan konnotativ birliklar anglatgan ma‘no ijobiylikdan salbiyga yoki aksincha ma‘noga o‘tishi mumkin. Masalan, Sovet davrida ideologik ta‘sir natijasida ayrim konnotatsiyalar o‘zgarib, yangi baholash qirralari paydo bo‘ldi. Masalan, “Quloq” – qishloq xo‘jaligida boy fermer ma‘nosi bo‘lgan so‘z, Sovet propagandasida esa “xalq dushmani”, “ekspluatator” kabi salbiy konnotatsiya bilan ishlatilgan. “Intelligentsiya” Ilm-fan va madaniyat sohasidagi ziyolilarni ifodalagan so‘z, biroq Sovet davrida u ko‘pincha siyosiy faoliyatga bog‘langan va ba‘zida tanqidiy yoki inkor etuvchi konnotatsiyaga ega bo‘lgan. “Burjuaziya” – oldin iqtisodiy sinf sifatida ishlatilgan, ammo Sovet davrida salbiy, dushman sinfi va kommunistik qarshilik ramzi sifatida konnotatsiya olgan. XXI asrda internet va texnologiyalar ta‘siri ostida ba‘zi so‘zlar konnotatsion ma‘no hosil qila boshladi. Masalan, “Cloud” (Bulut) an’anaviy ma‘noda osmonda suzuvchi suv bug‘lari, lekin zamonaviy tilda — internetdagi ma‘lumotlarni saqlash va ulashish texnologiyasi



sifatida konnotativ ma’no kasb etgan. “Like” (Layk) – inglizcha “yoqdi” ma’nosidagi so‘z, lekin ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Instagram) qo‘llanilishi bilan konnotatsiya — ma’qullash, qo‘llab-quvvatlash, “trend” yoki “moda” belgisi bo‘lib qoldi. “Troll” – folklorik mavjudot, lekin internetda odamlarni bezovta qiluvchi, provokatsiya qiluvchi foydalanuvchi ma’nosida konnotatsiyaga ega bo‘ldi. Bu davrda ham ularning ayrimlari ijobiy ma’nodan salbiy ma’noga o‘tdi. Masalan, “Doston” so‘zi an’anaviyda epik she’r ma’nosida, XXI asrda esa ko‘proq “hayotiy voqea” yoki “shaxsiy hikoya”ni bekor so‘zlash ma’nosini yuzaga keldi. O‘zbek tilidagi konnotativ birliklar milliy madaniyat va tafakkurning ayni ifodasidir. Ularning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi xalq tarixidagi asosiy voqealar va madaniy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Tilshunoslikda konnotatsiyalarni faqat semantik yoki frazeologik birliklar sifatida emas, balki lingvomadaniy kontekstda o‘rganish ularning to‘liq mazmunini anglashga imkon beradi. Shuningdek, tarjima va lingvistik kommunikatsiya jarayonida konnotatsiyalarni to‘g‘ri ifodalash katta muammo bo‘lib qolmoqda, chunki ular milliy madaniyatga chuqur bog‘langan. Konnotatsiya lingvistik tadqiqotlarda so‘zning chuqur semantik qatlamini ochib beradigan muhim hodisadir. U nafaqat so‘zning denotativ ma’nosini boyitadi, balki milliy madaniyat, tarixiy tajriba va estetik qadriyatlarni ham aks ettiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, konnotatsiyaning turli ko‘rinishlari so‘zning ta’sirchanligini oshiradi va matnga qo‘shimcha ma’no beradi. O‘zbek tilshunosligida ham konnotatsiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u badiiy nutqning obrazlilik va ifodaviyligini ta’minlaydi. Shu bois, konnotatsiya bo‘yicha olib boriladigan keyingi tadqiqotlar semantika, pragmatika va lingvokulturologiya kesishgan nuqtalarda yanada samarali natijalar berishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Якобсон П. Closing Statement: Linguistics and Poetics // In T.A. Sebeok (Ed.), *Style in Language*. – Cambridge (MA): MIT Press, 1960. – P. 350–377.
2. Гак В. Семантика и структура языка. – Москва: Наука, 1986.
3. Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977.
4. Crystal D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics* (6th ed.). – Oxford: Blackwell, 2008.
5. Кропотова Л.В. История развития лексической коннотации // *Язык и культура*. – 2010. – №1. – С. 33–47.
6. Апресян С.И. *Connotation as a structural element of lexical meaning*. – Москва: Наука, 1974.
7. Сунцова М.В. *Connotative meaning in Russian language*. – Москва: Наука, 2021.
8. Абдулла Қодирий. *Ўткан кунлар*. – Тошкент: Фафур Ғулум нашриёти, 1948.
9. Чўлпон. *Кеча ва кундуз*. – Тошкент: Академнашр, 1935.



10. Ҳамид Олимжон. Шеърлар тўплами. – Тошкент: Шарқ, 1957.
 11. Эркин Воҳидов. Танланган шеърлар. – Тошкент: Шарқ, 1979.
 12. Абдулла Қаҳҳор. Олтин девор. – Тошкент: Фан, 1965.
 13. Иброҳимов Ғ.Ғ. Тил ва тафаккур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
 14. Қодиров М. Лингвомаданиятшунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2015.
 15. Каримова М. Маданият ва тил: Коннотатив бирликлар таҳлили // Тил ва адабиёт журнали. – 2022. – №3. – Б. 45–52.
- https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAJ:YsMSGlbcyi4C



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774